

TA'LIM SIFATINI OSHIRISH YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING  
YAGONA YO'LIDIR.

**Maqsudova Gulbahor Abdujabbarovna**

*Toshkent shahar yuridik texnikumi " Ommaviy -  
huquqiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Mamlakat taraqqiyotining yagona yo'li ilm va ma'rifatdir. Ilm va ma'rifat ustuvor bo'lgan jamiyatda ma'naviyat yuksaladi, davlat taraqqiy topadi, inson qadri ulug'lanadi. Bunga eltadigan yagona yo'l esa ta'lim va tarbiyadir.

**Kalit so'z:** Ma'naviyat, barkamol avlod, ilm fan, taraqqiyot ta'lim, tarbiya

**Kirish**

Ma'lumki, keyingi vaqtlarda mamlakatimizda ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish, ta'lim sifatini yana oshirish maqsadiga qaratilgan ko'plab xujjatlar qabul qilinmoqda . Bu xujjatlar avvalo jamiyatda o'qituvchining obro'-e'tiborini ko'tarish uning sha'nini ulug'lash buyuk kelajagimiz yaratuvchilarini tarbiyalashdagi o'rnini munosib baholash shuningdek ta'lim sohasidagi muomolarni hal etish barobarida ta'lim sifatini oshirish maqsadiga qaratilgan. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda " O'quvchilarni faqat yodlashga emas balki fikrlashga chorlaydigan metodika yaratish lozim ". Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Yangi O'zbekiston davlatining binokorlari yangi taraqqiyot davri poydevorini yaratuvchilari bo'lmish yosh avlodni tarbiyalash, unga mukammal ilm o'rgatish kabi eng ezgu ishlar ana shu Ustozlar qo'lidadir.

**Asosiy qism**

Shu bois mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim sohasi tubdan isloh qilinmoqda. Qisqa muddat ichida sohada keng ko'lamlil ishlar amalga oshirildi, yuksak natijalarga erishildi. O'qituvchi kasbining obro'-e'tibori yuksaldi, qadri oshdi, ularni moddiy rag'batlantirishning yangi tizim va mexanizmlari ishlab chiqildi va joriy etilmoqda.

Prezidentimizning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasida 2023-yilga "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili", deb nom berilgani ham, avvalo, ta'lim sohasida boshlangan ulkan ishlarimizni izchil davom ettirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Aytish joizki, bu, o'z navbatida, soha vakillari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to'g'ri yo'lidir. 2023-yilda ham

maktablarda ta'lim sifatini oshirish, o'qituvchi kasbining nufuzini ko'tarish hamda ular sharoitini yaxshilash eng asosiy vazifalardan biriga aylanadi.

Prezidentimiz o'qituvchilarning maqomi, ularning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish Konstitutsiyada alohida belgilanishi zarur, deb alohida ta'kidladi.

Yana bir xushxabar shundan iboratki, 2023-yildan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilari mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitiladi.

Davlatimiz rahbari bolalarimiz maktabda ona tili va chet tillarini puxta o'zlashtirishi, kompyuterda ishlashni puxta o'rganishi, ularni kasb-hunarga, san'at va madaniyatga qiziqtirish, o'quvchilarda erkin va kreativ fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini shakllantirish zarurligini ta'kidladi.

2023-yildan maktab ta'limi xalqaro ta'lim dasturlari asosida tubdan isloh qilinadi. Darsliklar yangilanadi, ilg'or ta'lim standartlari va metodikalar joriy etiladi. Ayni shu maqsadda alohida ilmiy institut va laboratoriyalar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

Prezident yoshlarning zamonaviy kasb-hunar egallashi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratishni ta'lim sohasidagi navbatdagi muhim yo'nalish, deb baholadi.

Murojaatnomada ta'kidlanganidek, ayni paytda, maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelyapti. Mamlakatimizda hozirgi kunda 700 dan ortiq kasb-hunar maktabi, kollej va texnikumlar faoliyat yuritmoqda. Davlatimiz rahbari ana shu imkoniyatdan samarali foydalanish zarur, deb aytdi. Bu, o'z navbatida, "Barkamol avlod" bolalar maktablari zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Ayni paytda joylarda 219 ta "Barkamol avlod" bolalar maktablari faoliyat yuritadi. Ularda 6 yo'nalishda 368 ming nafar o'quvchi kasb-hunar o'rganmoqda. Shu o'rinda "Barkamol avlod" bolalar maktablaridagi iqtidorli o'quvchilar bazasi shakllantirildi. Ularning soni bugungi kunda 1145 nafarga yetdi. Shundan 143 nafari xalqaro olimpiada va tanlovlarda, 1002 nafari respublika miqyosidagi musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritdi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Pecpublikacining Konctitutsiyaci. –T.: Adolat, 2021.
- 2."O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13 apreldagi PQ-3666-sonli Qarori

3.2018-yil 25-yanvardagi “Umumiy oʻrta, oʻrta maxsus va kasb-hunar taʼlimi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-5313-son farmoni

4.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “Oʻzbekiston Respublikasini yana-da rivojlantirish boʻyicha Harakatlar strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-4947-son Farmoni;

5..2017-yil 5-iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va Oʻzbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qoʻllab-quvvatlash toʻgʻrisida”gi PF-5106-son Farmoni;

6. [http://mt.uz /uz/](http://mt.uz/uz/) yangiliklar saytidan.

7.[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

8.<https://yuz.uz>